MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA TALABALARNING MUSTAQIL GAPIRISH MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Karimjonova Dilnozaxon Qutbidin qizi
Andijon davlat pedagogika instituti, ingliz tili fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22856137

Annotatsiya: Bugungi globallashgan davrda o’qitish jarayonida mobil ilovalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, til o’qitish va o’zlashtirishda zamonaviy interaktiv texnologiyalarning o’rni beqiyos. Raqamli platformalardan foydalanish o’rganuvchilarga tilni mustaqil o’zlashtirishda va undan amaliyotda unumli foydalanishda ancha qulayliklar yaratib beradi. Ushbu tezisda talabalarning ingliz tilida og’zaki nutq ko‘nikmasini auditoriyadan tashqarida mustaqil tarzda zamonaviy mobil ilovalar (ELSA Speak, Google Pronunciation, SpeakingPro, Duolingo, HelloTalk) yordamida mustaqil rivojlantirish metodikasi taklif etiladi. M.A.Rasulova o’z tadqiqot ishida uch bosqichli model – diagnostika, individual topshiriqlar va o‘qituvchi nazorati orqali talabaning amaliy mashq yetishmasligi muammosini bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatib bergan.

Kalit so‘zlar: gapirish ko‘nikmasi, mobil ta’lim, mustaqil ta’lim, raqamli platformalar, o‘z-o‘zini nazorat qilish, m-learning.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalarning ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish faqatgina auditoriya vaqti bilan chegaralanib qolmasligi kerak. An’anaviy dars jarayonida har bir talabaga og‘zaki nutq uchun ajratilgan vaqt cheklangan bo‘lib, katta guruhlarda talabalarning katta qismi faol gapirish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Bu holat nazariy bilimning amaliy ko‘nikmaga to‘liq aylanishiga to‘sqinlik qiladi va auditoriyadan tashqarida mustaqil mashq qilish imkoniyatlarini ishlab chiqishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

So‘nggi yillarda mobil ta’lim texnologiyalarining rivojlanishi bu muammoni hal etishning yangi imkoniyatlarini ochib bermoqda. ELSA Speak, Google Pronunciation kabi ilovalar talabaga istalgan vaqtda, istalgan joyda o‘z nutqini mustaqil mashq qilish, talaffuz va intonatsiyasini avtomatik tarzda tekshirish imkonini beradi. Bunday vositalarning muhim afzalligi shundaki, ular talabaga xato qilishdan qo‘rqish va ijtimoiy noqulaylik hissisiz mashq qilish sharoitini yaratadi, bu esa til anksiyetasini kamaytirishga bevosita xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan metodika uch bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda talabaning boshlang‘ich nutq darajasi mobil ilova yordamida diagnostika qilinadi. Ikkinchi bosqichda haftalik individual topshiriqlar – masalan, kunlik 10 daqiqalik ovozli yozuvlar, mavzuli monologlar – belgilanadi va ilova orqali avtomatik baholanadi. Uchinchi bosqichda o‘qituvchi ilova statistikasi asosida talabaning progressini kuzatib boradi va auditoriya darsida individual fikr-mulohaza beradi. Bu yondashuv auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatni uzviy bog‘lab, mustaqil ta’limni nazorat ostida saqlash imkonini beradi.

M.Rasulova [1] o‘z tadqiqotida esa mobil ta’lim (m-learning) tushunchasini mobil qurilmalar – telefon, planshet, noutbuk, smartfon – vositasida individual yoki guruh bo‘lib ta’lim olish jarayoni sifatida ta’riflaganini ko’rishimiz mumkin.. tadqiqotchining fikriga ko’ra, mobil ta’lim texnologiyalarining eng muhim afzalligi shundaki, u joy va vaqtni tanlamaydi bu esa talabalarga o‘zlariga qulay vaqtda va makonda til ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi hamda og‘zaki nutqni real kommunikativ vaziyatlarga yaqinlashtiradi [1].

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

M.Rasulovaning tadqiqotiga ko‘ra, talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda uch xil mobil ilova alohida samarali ekanligini aniqladik: Duolingo – o‘yinlashtirilgan mashqlar orqali talaffuz va so‘z boyligini oshirishga; SpeakingPro – to‘liq immersiya usuli bilan talaffuz va tinglab tushunishni rivojlantirishga; HelloTalk esa dunyo bo‘ylab ona tili vakillari bilan bevosita muloqot qilish imkonini berishga xizmat qiladi [1]. Bundan tashqari, ushbu mobil ilovalarning interaktivlik (ovozli topshiriqlar, real vaqt rejimidagi muloqot) va motivatsion (o‘yinlashtirish elementlari, darajalar tizimi) xususiyatlari talabalarning o‘qishga hamda og’zaki nutq ko’nikmasini rivojlantirishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilishi alohida ta’kidlangan [1].

Xulosa qilib aytganda, mobil ilovalar orqali tashkil etilgan mustaqil gapirish mashg‘ulotlari talabalarga amaliy mashq yetishmasligi muammosini bartaraf etishda va vaqtdan unumli foydalanishda samarali vositabo‘libxizmatqiladi.

Jumladan, u qimmat texnik infratuzilmani talab qilmaydi — Duolingo, SpeakingPro, HelloTalk kabi ilovalarning aksariyati bepul yoki arzon narxda mavjud, bu esa alabalar uchun ancha qulay imkoniyat hisoblanadi. Bundan tashqari, metodika talabaning individual sur’atda ishlashiga imkon berib, katta guruhlarda o‘quvchilarning e’tibordan chetda qolish kabi muammoni qisman hal qiladi va ilovalar orqali xatosiz muhitda mashq qilish imkoniyati talabaning psixologik ishonchini oshirib, tildan erkin foydalanishdagi to’siqlarni kamaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulova M.A. Raqamlashtirish sharoitida talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent: Nizomiy nomidagi O‘zMPU, 2025. – 190 b.
2. Prenova G.B. Talabalarda gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent: O‘zMPU, 2026. – 169 b.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.